

ABDULLA QAHHOR IJODIDA KICHIK JANRLAR POETIKASI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI

Mashrapova Sevara

NamDU magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada adib Abdulla Qahhor ijodida kichik janrlar poetikasi, uning individual mahorati va o'ziga xosligi to'g'risida so'z boradi.

Annotation: in this article, it is stated that the dealing with the poetics of small genres in the works of the writer Abdulla Qahhor, his individual skills and peculiarity.

Аннотация: в данной статье говорится о поэтике малых жанров в творчестве писателя Абдуллы Каххора, его индивидуальное мастерство и особенность.

Kalit so'zlar: realistik tasvir, o'ziga xoslik, tipik voqealar, hajv, tug'ma qobiliyat, folklor an'anaları.

Ключевые слова: Реалистичное изображение, особенность, типичные события, комедия, врожденная способность, фольклорные традиции.

Key words: realistic image, peculiarity, typical events, comedy, innate ability, folklore traditions.

"Badiiy adabiyotning asosida, shubhasiz, inson ma'naviyati bilan bog'liq muammolarning badiiy ifodasi turadi. Shu bosidan ham hech bir ijodkor yo'qliki, o'z asarida bu masalani chetlab o'tgan bo'lsin. Abdulla Qahhor ijodi, jumladan hikoyalari yuzasidan ham shu fikrni aytish mumkin", (Karimov, 2008).

Abdulla Qahhor haqida so'z borar ekan, u betakror ijodklor sifatida ham, ulug'vor fazilatlarga ega bo'lган oddiy bir shaxs sifatida ham xalqimizning ma'naviy hayotida mangulikka aylangan siy wholelardan biri desak, yanglishmagan bo'lamiz. U xilma-xil janrdagi asarlari bilan ona yurtimizning yaqin o'tmish tarixi va o'z davrining to'laqonli manzarasini shu bilan birga zamondoshlarimizning yuksak fazilatlarini faqat o'zigagina xos bo'lган tabiiy hamda boy tafakkurga ega bo'lган uslubda tasvirlab, adabiyotimizda o'ziga xos maktab yarata oldi, unga yangi nafas oilib kirdi.

Abdulla Qahhor hikoya janridagi o'ziga xos realistik tasvir uslubini yirik nasriy asarlarida ham namoyon eta oldi. Adib roman va qissalarda ham tariximizning muhim taraqqiyot bosqichlaridagi xalq hayoti va dolzarb mavzularni mumtoz tasvirlashning badiiy sabog'ini berdi.

Adib uzoq vaqtlar adabiy jamoatchilikning bahslariga sabab bo'lган birinchi romani "Sarob" uchun hayotiy material saralar ekan, hayot mazmuni va davr qiyofasidagi o'zgartirishga qodir inson ma'naviyatini talqin etishini asos qilib oldi.

Bu ham, yozuvchining o'ziga xos jihatlaridan biri ekanligini yaqqol ko'rsatib turadi. O'ljaboyev ushbu yozuvchining mahorati haqida shunday yozadi: "Har bir vaziyatdagi asar qahramonining individual holatini uning ichki dunyosi bilan munosiblikda ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi. Harakterlar talqinidagi harakat, holat va ruhiyat irodasi san'atkoriлик bilan topilgan yorqin detallar vositasidan o'quvchiga yetkaziladi", (O'ljaboyev, 2013).

Komediya janri masalasida ham o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Adabiyotimizda komediya janrinining taraqqiyotiga katta hissa qo'sha oldi. Uning komediyalarini haqida gap ketganda davrining muhim axloqiy-ma'naviy muammolarining yorqin harakterida, zamondoshiga saboq bo'lарli tarzda talqin etilganligi alohida qayd etish kerak.

Xususan, "Shoxi so'zana", "Tobutdan tovush", "Ayajonlarim" kabi komediyalarida o'zbek xalq hayotidagi tipik voqealarning realistik va lirk uslubda, xayotiy konflikt va ishonarli kulguli vaziyatlarda, xalq tilining rang-barang go'zalliklarida berilishi bilan ham janr taraqqiyotida o'ziga xos bir yangilik bo'lди. Taniqli yozuvchi Ozod Sharafiddinovga ko'ra: "Abdulla Qahhorda hajvga, kulgiga moyillik unga tashqaridan

yopishgan yoki hayotiy tajriba ortidan orrtirgan bisot emas, balki tug'ma xislatdir. Hajvivotga moyillik uning qonida mavjud, qolaversa, uning fikrlashidagi o'ziga xoslikdan tug'ilgan", (Sharafiddinov, 1988).

Boshqa tomondan olib qaraganda, Abdulla Qahhorning adabiyotimiz rivojidagi yana bir buyuk xizmatlaridan biri uning realistik badiiy nasrning shakllanishi va rivojiga barakali ulush qo'shganligidir. Hikoya janrinning XX asrning 30-yillaridan keyingi davrdagi taraqqiyoti bevosita Abdulla Qahhor nomi bilan bog'liq deb bemalol aytish mumkin. Uning hikoyalaridagi chuqur xalqchilik, hajv tig'ining o'tkirligi, bir tomondan, adibning individual mahorati bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, uning turli janrlarda folklor an'analaridan ustalik bilan oziqlanishi oqibati deb tushunmoq kerak.

Fikrlarimizni isboti sifatida adibning "Raqib", "Gumroh", "Aflatun muhabbat" kabi ilk hikoyalaridan boshlab, 30-yillarda yozilgan va kitobxonlar orasida katta shov-shuvlarga sabab bo'la olgan asarlarining barchasida folklorona ruh yaqqol sezilib turadi. Boshqacha qilib aytganda, adib hikoyalarining mazmunan teranligi, yuksak haqqoniyligi, badiiy o'tkirligi bilan o'zbek prozasi rivojida alohida o'rinn tutadi. Bu o'rinda, ijodkorning yaqin do'sti hamda ustozи bo'l mish Oybek shogirti haqida fikr bildirar ekan: "Uning barcha asralarini kitobxonlar katta e'tibor bilan sevib o'qiydilar. Uning tili va uslubi katta masterlar darajasida xarakterlari aniq bir-biridan keskin ajralib turadi".

Shoir mahorati haqida gap ketar ekan, bir qancha buyuk yozuvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar va uning ijod yo'li ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Abdulla Qahhor mohir so'z san'atkori edi. Muayyan xarakter va holatni aks ettira oladigan so'zni qo'llab va uni qolipiga tushgandek o'rnini topib ishlatish unga maroq bag'ishlardi. Bu jihatdan u haqiqiy mo'jizakor adib edi. So'z uning oldida bamisolito atkor askar, qaysi ma'no tomon buyruq qilsa, shu tomon yuz tutib, xizmatiga tayyor turgandek edi.

Misol tariqasida, adibning "Anor" nomli hikoyasini olaylik. Mazkur hikoyada oddir bir mehnatkash yigit sevimli xotining eng oddiy bir talabini qondirishga qurbi yetmaydi, buning uchun esa u ilojsizlikdan o'g'rilik sodir qilishga majbur bo'ladi. Odatta, o'lim bilan tugallanadigan asarlarni fojia deyishga o'rganganmiz. Bu hikoyada o'lim yo'q, lekin o'limdan ham yomonroq, daxshatliroq bir tragediya bor. Bu – yigitning sevikli ayolini istagini bajo keltira olmasdan iztirob chekishi, buning oqibatida esa o'g'irlilik qilishga majbur bo'lishi bilan izohlanadi. Yuqoridagi fikrlarning o'zi Abdulla Qahhor ijodining o'ziga xosligini dalillashga qodir.

"Daxshat" hikoyasini oladigan bo'lsak, mazkur hikoyada adib peyzaj voisitalaridan foydalanadi. Aslida esa, peyzajga nisbatan Abdulla Qahhor xasis yozuvchilardan ya'ni o'rinni-o'rinsiz ravishda asarga tabiat tasvirini kamdan-kam kiritadi. Bunda, yozuvchi bosh voqeanning umum oqimidan chekkaga chiqib ketishni oldini oladi. Ba'zi yozuvchilar tabiat manzaralarini, bevosita uning go'zalligini kitobxonga yetkazish maqsadida peyzajni qo'llab ketishadi va yuqorida aytib o'tilganidek asosiy g'oyadan chetga chiqib ketish holatlari kitobxonda bevosita yuzaga keladi. Abdulla Qahhor esa, peyzajdan faqat asar qahramonlari harakat qiladigan muhitni jonlantirish maqsadida ishlatiladi. Umarali Normatovning ta'kidlashicha: "Ba'zi yozuvchilkar asarlarida o'rinsiz, murakkab, kitobxonga hech qanday zavq bermaydigan peyzajlar ham uchrab qoladi. Abdulla Qahhor ijodida esa bunday holni ko'rmaysiz", (Normatov, 2007).

Hulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri. Uning hajm jihatidan kichik bo'lsada, o'zida bir olam ma'no ifodalay oladigan hikoya va qissalari har bir kitobxonga ma'lum va mashhur hisoblanadi. Hikoyanavis adibning mahorati uning har bir timsolida, har bir detalda namoyon bo'ladi. Abdulla Qahhor haqida so'z yuritgan adabiyotshunoslarning aksariyati, uni "O'zbek adabiyotining Chexovi" deyishadi. Haqiqatda, xarakter yaratishda, obrazlarning individual xislatlarini bo'yodkor holatda ko'rsatishda tengsiz hisoblanadi. O'ziga xos maktab yarata olgan janr bo'l mish hikoyachilikda lo'nda va oddiy so'z bilan ulkan g'oyani tasvirlash mahoratini namoyon qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov. I, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent, 2008. 176-b
2. O'ljabiyev. U, "Abdulla Qahhor saboqlari", Guliston. 2013, 40-b
3. Sharafiddinov. O, "Abdulla Qahhor", "Yosh gvardiya" nashriyoti. Toshkent, 1988. 123-b
4. "Adabiyotimiz faxri", O'zbekistyon, Toshkent. 2007.
5. Normatov. U, "Ijod sehri". "Sharq" nashriyoti, Toshkent. 2007.

<https://conferencepublication.com>

<http://samdu.uz>

<https://journals.uz>

